

Sen uchun kuylayman, O'zbekiston!



Musika so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan tuyg'ularni yetkazib berishga yordam beradi. O'zbekiston haqida kuylaganimizda, biz quyosh, tinchlik, do'stlik va ona diyorimiz go'zalligiga hissa qo'shayotgan insonlar haqida kuylaymiz. Har biringiz o'z Vataningizning jajji kuychisi bo'lishingiz mumkin.

Bizning Vatanimiz – betakror, quyoshli va mehmondo'st O'zbekiston. Bu o'lkada mehrli va mehnatsevar insonlar yashaydi, baxtli bolalar ulg'ayadi, turli tillardagi qo'shiqlar yangraydi, ammo barchamizni **ona zaminimizga bo'lgan mehr-muhabbat birlashtiradi**.

Bugun biz o'rganib, yod oladigan qo'shiq **“Bu mening Vatanim – O'zbekiston”** deb nomlanadi. Unda Vatanimizning go'zalligi, ramzlari (bayroq, madhiya), Humo qushi, ona yerimiz boyliklari va birgalikda tinch-totuv yashayotgan xalqlar o'rtasidagi do'stlik madh etiladi.

Men diyorim bilan faxrlanaman!

Bu mening uyim, mening Vatanim – O'zbekiston!

Bu mening Vatanim – O'zbekiston!

Ibrohim Jiyonov so'zi
Pavel Uporov musiqasi



1 U Markaziy Osiyoda,
O'n ikki viloyat bor unda,
Go'zal Toshkent poytaxt unga.
Mustaqil Vatanim – O'zbekiston!
Bu mening Vatanim – O'zbekiston!

2 Bayrog'i ko'k, yashil, oq rangda,
O'n ikki yulduz va oy bor,
Humo qushi gerbimizda.
Mustaqil Vatanim – O'zbekiston!
Bu mening Vatanim – O'zbekiston!



3 Doim to'kin bizning dasturxon,
Palovni sevar butun jahon.
Shirin mevali bog'-u bo'ston,
Mustaqil Vatanim – O'zbekiston!
Bu mening Vatanim – O'zbekiston!

4 Bunda yashar turli millatlar,
Har doim inoq va do'st ular,
Bunda baxtiyordir bolalar.
Mustaqil Vatanim – O'zbekiston!
Bu mening Vatanim – O'zbekiston!



1. Ushbu qo'shiq nima haqida kuylangan ekan?
2. Muallifning so'zlariga ko'ra O'zbekiston qayerda joylashgan?
3. O'zbekistonda nechta viloyat bor?
4. O'zbekiston poytaxti qaysi shahar?
5. Qo'shiqda xalqimizning ahilligi haqida nimalar deyilgan?
6. Gerbimiz markazida qaysi qush tasviri tushirilgan?



- Qo'shiqqa mos rasm chizing.
- Vataningizni nima uchun yaxshi ko'rishingiz haqida 2–3 qator gap tuzing.

